

**ASIA ALLIANCE BANK XISOB KOMISSIYASI YIG'ILISINING
2-SONLI BAYONI.**

Toshkent sh.

2023 yil 8 noyabr

Sanoq komissiyasi raisi – Usmonov X.A.
Sanoq komissiyasi a’zolari: – Fedchenko S.V., Nurmatov S.N.

KUN TARTIBI:

“ASIA ALLIANCE BANK” ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida ovoz berish natijalarini aniqlash

I. ODDIY OVOZ BERISH

Majlis kun tartibidagi masala tartib raqami	Ha	Qarshi	Betaraf	Buzilgan byulletenlar
1.1. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini o‘tkazishning quyidagi qoidalari tasdiqlansin: - kun tartibidagi masalalar yuzasidan chiqishlar – 10-15 daqiqa; - Kun tartibidagi barcha masalalar bo'yicha savol-javoblar - har biri 10-15 daqiqa.	2 147 105 692			
2.1. Oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash uchun o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan 38 583 489 285,24 so'm ajratilsin. 2.2. Bir oddiy aksiya uchun 17,97 so'm miqdorida dividendlar ularni to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab oltmish kun ichida to'lansin. Dividendlarni to'lash boshlanish sanasi 2023-yil 8-noyabr; Dividendlarni to'lash muddati 2024 yil 6 yanvar. Dividendlar naqd pulda aksiyadorlarning bank hisobvaraqlariga o'tkazish yo'li bilan, shuningdek, Bank kassalari orqali naqd pulda to'lanadi. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun tayyorlangan Bank aksiyadorlari reestriga kiritilgan aksiyadorlar yig'ilish rasman e'lon qilingan sanadan uch ish kuni oldin dividendlar olishga haqli.	2 147 105 692			
3.1. Mazkur bayonnomaning 1-ilovasiga muvofiq Bank ustaviga o'zgartirishlar kiritilsin va tasdiqlansin.	2 147 105 692			
4.1. “ASIA ALLIANCE BANK” ATB Kuzatuv kengashi to'g'risida”gi nizomga mazkur bayonnomaning 2-ilovasiga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin va tasdiqlansin.	2 147 105 692			
5.1. Bank Kuzatuv kengashining amaldagi tarkibi vakolatlari 2023-yil 8-noyabrdan muddatidan ilgari tugatilsin.	2 147 105 692			
6.2. Belgilansinki, Bank Kuzatuv kengashi a'zolari ular saylangan kundan e'tiboran o'z vakolatlariga kirishadi va Kuzatuv kengashiga a'zolik to'g'risida ilgari tuzilgan shartnomalar asosida ish yuritadi, Kuzatuv kengashining ilgari bunday shartnomalar tuzilmagan a'zolari bundan mustasno. Mazkur shaxslar bilan Kuzatuv kengashiga a'zo bo'lish to'g'risidagi shartnoma O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ularning nomzodlari belgilangan tartibda tasdiqlanganidan keyin tuziladi. Bank aksiyadoriga vakolat berish uchun R.S. Islomov, Bank nomidan uning Kuzatuv kengashi a'zolari bilan Bank Kuzatuv kengashiga a'zolik to'g'risida shartnoma tuzsin.	2 147 105 692			

II. KUMULATIV OVOZ BERISH

№	Ovozga qo'yilgan savolning tahriri:		Ha (Bank Kuzatuv kengashi a'ziligiga nomzod uchun berilgan ovozlar soni)
	6.1. Bank Kuzatuv kengashi ushbu qaror qabul qilingan kundan boshlab uch yil muddatga quyidagi tarkibda saylansin: Bank Kuzatuv kengashi a'ziligiga nomzodning to'liq ismi-sharifi	Bank Kuzatuv kengashi a'ziligiga nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar	
1	Abduqahhorov Ikram Abduxoliqovich	Bank Kuzatuv kengashi a'zosi	2 147 105 692
2	Mustafoev Otabek Sadikovich	-	2 147 105 692
3	Gurko Aleksandr Olegovich	GLONASS OAJ direktorlar kengashi a'zosi	2 147 105 692
4	Mkrtchyan Ornella-Afina	Gor Investment Limited direktori	2 147 105 692
5	To'ns Karston	Moliyaviy maslahatchi	2 147 105 692

Sanoq komissiyasi raisi

Usmonov X.A.

Sanoq komissiyasi a'zolari

Fedchenko S.V.,
Nurmatov S.N.